



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH, YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	

TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI



Orifova Dilnoza Obid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0004-5727-9011

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida foiz siyosatining amaliy holati hamda Markaziy bank monetar siyosatining tijorat banklari kredit foiz stavkalariga uzatilish samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2020–2025-yillar davomida shakllantirilgan oylik statistik ma'lumotlar asosida Markaziy bankning asosiy stavkasi va yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik jihatdan baholangan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli va unga asoslangan Bounds testi hamda Error Correction Model qo'llanilgan. Mazkur yondashuv orqali asosiy stavka o'zgarishlarining kredit foiz stavkalariga qisqa va uzoq muddatli ta'siri, foiz stavkasi pass-through koeffitsienti hamda muvozanat holatiga qaytish tezligini aniqlash nazarda tutilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida monetar siyosatning foiz kanali orqali tijorat banklari kredit stavkalariga ta'sirining kuchi va tezligini baholash, shuningdek, banklarning foiz siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, foiz siyosati, monetar siyosat, Markaziy bankning asosiy stavkasi, kredit foiz stavkasi, uzoq muddatli kreditlar, foiz stavkasi pass-through, monetar transmissiya mexanizmi, ARDL modeli, Bounds testi, Error Correction Model.

Аннотация: В статье исследуется практическое состояние процентной политики коммерческих банков Узбекистана и эффективность трансмиссии денежно-кредитной политики Центрального банка в процентные ставки по банковским кредитам. На основе ежемесячных статистических данных за 2020–2025 годы эконометрически оценивается взаимосвязь между основной ставкой Центрального банка и средневзвешенными процентными ставками по долгосрочным кредитам, предоставленным юридическим лицам. В качестве методологического инструментария применена модель ARDL (Autoregressive Distributed Lag), а также основанные на ней тест границ (Bounds test) и модель коррекции ошибок (Error Correction Model). Данный подход позволяет оценить краткосрочное и долгосрочное воздействие изменений основной ставки на процентные ставки по кредитам, определить коэффициент процентного pass-through и скорость возвращения системы к долгосрочному равновесию. Полученные результаты позволяют оценить силу и скорость воздействия денежно-кредитной политики на кредитные ставки коммерческих банков Узбекистана через процентный канал трансмиссионного механизма, а также сформулировать практические рекомендации по совершенствованию процентной политики банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, процентная политика, денежно-кредитная политика, основная ставка Центрального банка, процентная ставка по кредитам, долгосрочные кредиты, процентный pass-through, механизм денежно-кредитной трансмиссии, модель ARDL, тест границ, модель коррекции ошибок.

Abstract: This article examines the practical state of interest rate policy in commercial banks of Uzbekistan and the effectiveness of monetary policy transmission into bank lending rates. Using monthly statistical data for the period 2020–2025, the study empirically assesses the relationship between the Central Bank's policy rate and the weighted average interest rates on long-term loans extended to legal entities. The ARDL (Autoregressive Distributed Lag) model, together with the Bounds test and Error Correction Model, is employed



as the main econometric methodology. This approach makes it possible to assess the short-run and long-run effects of changes in the policy rate on lending rates, estimate the interest rate pass-through coefficient, and determine the speed of adjustment toward long-run equilibrium. The findings provide an empirical assessment of the strength and speed of monetary policy transmission to commercial bank lending rates in Uzbekistan through the interest rate channel and provide a basis for developing practical recommendations for improving banks' interest rate policies.

Keywords: commercial banks, interest rate policy, monetary policy, Central Bank policy rate, lending interest rate, long-term loans, interest rate pass-through, monetary transmission mechanism, ARDL model, Bounds test, Error Correction Model.

KIRISH

Zamonaviy bank tizimida foiz siyosati tijorat banklarining moliyaviy resurslarni jalb qilish va joylashtirish jarayonlarini boshqarish, kredit va depozit operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash hamda foiz risklarini samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosatning tijorat banklari foiz stavkalariga uzatilish darajasi bank tizimining moliyaviy vositachilik samaradorligi va pul-kredit siyosatining amaliy natijadorligini baholash imkonini beradi. Monetar siyosatning foiz kanali orqali markaziy bankning asosiy stavkasidagi o'zgarishlar dastlab pul bozori shartlariga, keyinchalik tijorat banklarining resurslar qiymati va kredit stavkalariga ta'sir ko'rsatadi.

Foiz stavkasi kanali monetar transmissiya mexanizmining muhim tarkibiy qismi bo'lib, markaziy bankning siyosiy stavkasidagi o'zgarishlarning banklarning kredit va depozit stavkalariga, undan keyin esa investitsiya, iste'mol, yalpi talab va inflyatsiyaga ta'sirini ifodalaydi. Xalqaro empirik tadqiqotlarda mazkur jarayon ko'pincha "interest rate pass-through", ya'ni foiz stavkasining uzatilishi sifatida baholanadi. Foiz stavkalari uzatilishining samaradorligi, ayniqsa, kreditlarning muddati va turiga qarab farqlanishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlarda uzoq muddatli kreditlar va iste'mol kreditlari bo'yicha transmissiya koeffitsientlari boshqa kredit turlariga nisbatan pastroq bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Bu holat uzoq muddatli kreditlar bo'yicha banklarning foiz stavkasini belgilashda faqat joriy monetar siyosat stavkasiga emas, balki uzoq muddatli resurslar qiymati, kredit riski, inflyatsion kutilmalar, likvidlilik sharoitlari va bankning marja siyosatiga ham tayanishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston bank tizimida mazkur masalaning dolzarbligi so'nggi yillarda yanada oshdi. Monetar siyosatning inflyatsion targetlash tamoyillari asosida takomillashib borishi bilan bir qatorda, Markaziy bankning asosiy stavkasi banklar uchun pul resurslari qiymatini shakllantiruvchi muhim signalga aylanmoqda. Biroq monetar siyosat qarorlarining kredit bozoridagi foiz stavkalariga qanchalik tez va to'liq uzatilayotgani alohida empirik baholashni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida foiz siyosatining amaliy holatini baholash hamda Markaziy bankning asosiy stavkasi o'zgarishlarining yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini ekonometrik jihatdan aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda O'zbekiston bank tizimi uchun 2020–2025-yillarni qamrab olgan oylik ma'lumotlar asosida Markaziy bankning asosiy stavkasidan yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasiga bo'lgan ta'siri ARDL modeli yordamida qisqa va uzoq muddatli kesimlarda baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Monetar siyosatning bank kreditlari foiz stavkalariga uzatilishi iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan masalalardan biridir. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning asosiy qismi markaziy bankning siyosiy stavkasi bilan tijorat banklarining kredit stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning kuchi va tezligini aniqlashga qaratilgan.

Foiz stavkasi transmissiyasi konsepsiyasiga ko'ra, markaziy bankning monetar siyosat stavkasidagi o'zgarish banklarning kredit stavkalariga to'liq, qisman yoki umuman uzatilmaslari mumkin. To'liq transmissiya holatida markaziy bank stavkasining 1 foiz punktga o'zgarishi uzoq muddatda kredit stavkasining ham taxminan 1 foiz punktga o'zgarishiga olib keladi. Qisman pass-through holatida esa kredit stavkasining o'zgarishi siyosiy stavkadagi o'zgarishdan kichik bo'ladi.

Iqtisodchi olimlardan Prafulla G. Nabar, Sang Yong Park va Anthony Saunders o'zlarining tadqiqotlarida "Prime rate" stavkasi o'zgarishining aksiyalar bahosiga ta'sirini tahlil qilishgan [1]. Jianzhou Zhu, Manfen Chen, Wanli Li kabi olimlar esa ushbu stavkaning pul bozoriga ta'sirini o'rganishgan [2].

Joseph Friedman, Yochanan Shachmurove tadqiqotlarida Amerika Federal Zaxira siyosati o'zgarishining "prime rate" stavkasiga ta'sirini tadqiq etadi. 1994-yil o'rtalarida Federal fond stavkasini (Federal Fond rate)



targetlash jarayonida tijorat banklarining monetar siyosatdagi o'zgarishlarga bildirgan aks ta'sirini o'rgangan [3]. Ya'ni, banklar 1994-yildan keyin "prime rate" stavkasini Federal Zaxira stavkasiga 3 % ni qo'shish orqali hisoblash usulidan foydalana boshladi.

Michael A. Goldberg "Praym-reyt o'zgarishining pul bozoriga ta'siri" nomli maqolasida so'nggi o'n yillikdagi asosiy stavka va pul bozori stavkalari o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi [4].

Monetar siyosatning tijorat banklari chakana xizmatlariga ta'sirini baholashda S. Kleimeier va H. Sander tomonidan taklif etilgan yondashuv o'ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mualliflar Yevrohudud bank tizimi ma'lumotlari asosida foiz stavkalarining o'tkazuvchanligi dinamikasi monetar impulsning tabiatiga qarab farqlanishini empirik tahlil qilgan [5].

Monetar siyosatning tijorat banklari faoliyatiga ta'sirini o'rganishda I. Drexler, A. Savov va F. Shnabl tomonidan taklif etilgan "Depozit kanali" modeli zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda fundamental yondashuvlardan biri hisoblanadi [6].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarni umumlashtirish asosida quyidagi ilmiy xulosaga kelish mumkin: monetar siyosat stavkasining kredit stavkalariga uzatilishi avtomatik va bir xil jarayon emas; uning kuchi, tezligi va to'liqligi kredit turi, kredit muddati, bank tizimidagi raqobat, resurslar qiymati, inflyatsion kutilmalar va institutsional omillarga bog'liq.


Mazkur tadqiqot mavjud adabiyotlardan farqli ravishda O'zbekiston bank tizimida aynan yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasiga reaksiyasini 2020–2025-yillar oylik ma'lumotlari asosida baholaydi. Bu yondashuv uzoq muddatli kredit segmentida monetar siyosat transmissiyasining tezligi va kuchini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, statistik, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va ekonometrik modellash usullaridan foydalanildi hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari, tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar o'rganib, sohaga doir muammolar yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizda Markaziy bank pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar tijorat banklarining foiz siyosatiga qancha muddatda ta'sir etayotganini tahlil qilish uchun aynan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning foiz stavkasini tanlab oldik (1-rasm).




1-rasm. Yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kredit foiz stavkasi va Markaziy bank asosiy stavkasi dinamikasi¹

1 Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi.



Bank tizimi statistikasiga e'tibor qaratsak, so'nggi yillardagi asosiy stavkadagi o'zgarish kredit foizlariga ta'sir etmayotganining guvohi bo'lamiz. 2023–2024-yillar oralig'ida esa teskari ta'sir etganini ham kuzatish mumkin. Holatga aniqlik kiritish maqsadida ekonometrik tahlilni amalga oshiramiz.

Omil belgi (X) sifatida Markaziy bank asosiy stavkasi, natijaviy belgi (Y) sifatida esa yuridik shaxslarga milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi olindi. Tahlil uchun mos keladigan modelni tanlash maqsadida avtokorrelyatsiya usulidan foydalanib, ko'rsatkichlarni statsionarlikka tekshiramiz (2-rasm).



2-rasm. Asosiy stavka va yuridek shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditning o'rtacha foiz stavkasi uchun avtokorrelyatsiya tahlili²

“Stata” dasturidan olgan natijamiz shuni ko'rsatadiki, har ikkala vaqtli qatorlarda to'rt davrda avtokorrelyatsiya mavjud va bu ko'rsatkichlarning nostatsionar ekanligini anglatadi. Statsionar vaqtli qator hosil qilish maqsadida ko'rsatkichlarni integrallaymiz va Dickey-Fuller testidan foydalanib, qaytadan birlik ildiz testiga tekshiramiz (1-jadval).

1-jadval.
Differensiallangan vaqtli qator (Y, X) uchun Dickey-Fuller testi³

Ko'rsatkichlar	t-statistika	Kritik qiymatlar			p-qiymati
		1%	5%	10%	
Y	-4,950	-3,556	-2,916	-2,593	0.0000
X	-9,796	-3,556	-2,916	-2,593	0.0000

Olingan natijaga ko'ra, har ikkala o'zgaruvchi uchun p-qiymat < 0,05 hamda test qiymati manfiy ishoraga (Test Statistic) ega va barcha kritik qiymatlardan kichik. Bundan ko'rinadiki, asosiy stavka va yuridik shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi differensiallangan vaqtli qatorda statsionar, ya'ni I(1) ga teng. Demak, asosiy stavkaning kredit foizlariga qancha muddatda uzatilishini aniqlash uchun eng maqbul model ARDL (Autoregressive distributed-lag) modeli hisoblanadi. Shuningdek, model Markaziy bank stavkasi o'zgarganda kredit foizlari qisqa va uzoq muddatli davrda qanchaga o'zgarishini ko'rsata oladi.

Tadqiqotimiz uchun optimal modelni Akaike axborot mezonidan (Akaike Information Criterion) foydalanib tanlaymiz (2-jadval):

² Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida Stata dasturida muallif tomonidan tuzilgan.

³ Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida Stata dasturida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval. Asosiy stavkaning yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kredit foiz stavkalariga ta'siri (ARDL(1,2) model natijalari)⁴

Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyent	t-statistika	p-qiymati, P> t
Regressiya koeffitsiyentlari:			
Yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kreditning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi, Y_{t-1}	0.7951031*	10,22	0,000
Asosiy stavka, X_t	-0.0784065	-0,23	0,823
Asosiy stavka, X_{t-1}	0,7084625	1,29	0,204
Asosiy stavka, X_{t-2}	-0,6649428*	-2,00	0,050
Erkli o'zgaruvchi, cons	4,992642	1,94	0,057
Umumiy sitatistik ko'rsatkichlar:			
Kuzatuvlar soni	65		
Determinatsiya koeffitsiyenti, R^2	0,6442		
F-statistika, (Prob>F)	0,000		
Diagnostik testlar:			
Durbin-Vatson, d-statistic	2,290034		
Breusch-Pagan testi	2,10		0,1473

*Statistik ahamiyatga ega

Tijorat banklari foiz siyosatining asosiy stavka o'zgarishiga reaksiyasi darhol yuz bermasligini inobatga olgan holda, modelning optimal kechikish davrlari (lags) Akaike axborot kriteriyasi (AIC) yordamida aniqlandi. Buning uchun maksimal 4 oylik lag diapazoni o'rganildi va natijada eng yuqori statistik aniqlikka ega bo'lgan ARDL(1, 2) modeli tanlab olindi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, joriy davrdagi yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kredit stavkasi 79,5 % holatda o'tgan oydagi kredit stavkasiga bog'liq va bu statistik jihatdan o'ta ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu bank tizimida foiz stavkalarining asosiy stavka o'zgarishlariga juda sekin moslashishini ko'rsatadi.

Markaziy bank asosiy stavkasining joriy oyda (X_t) va bir oy oldin (X_{t-1}) o'zgarishi uzoq muddatli kredit foiz stavkalariga darhol ta'sir qilmaydi. Transmissiya mexanizmi joriy oyda «nolga yaqin» ($X_t = -0,078$) ishlayapti. Asosiy stavka o'zgargandan 2 oy o'tibgina (X_{t-2}) uzoq muddatli kredit foizlari bunga reaksiya bera boshlaydi. Koeffitsiyentning manfiyligi esa banklarda foiz riskini boshqarishda bozorning kutilmagan ta'siri mavjudligini hamda Markaziy bank asosiy stavkasi o'zgarishi bank foiz stavkasiga teskari ta'sir etishini anglatadi.

Umuman olganda, model ishonchli ($\text{Prob} > F = 0,000$), R -squared = 0,6442 (determinatsiya koeffitsiyenti) ekanligi kredit stavkalaridagi o'zgarishlarning 64,42 % qismi aynan ushbu modelga kiritilgan omillarga (Markaziy bank asosiy stavkasi va o'tgan oylardagi kredit stavkalari) bog'liqligini ko'rsatadi. Qolgan 35,58 % qismi esa model hisobga olmagan boshqa tasodifiy omillarga (likvidlik darajasi, inflyatsion kutilmalar, banklararo raqobat va h.k.) bog'liq.

O'tkazilgan diagnostika testlari modelning ishonchli ekanligini isbotlaydi. Xususan, Breusch-Pagan testi ($\chi^2(1) = 2.10$, $p = 0,1473$) modelda geteroskedastiklik muammosi mavjud emasligini, Durbin-Vatson ko'rsatkichi (2,29) esa modelda avtokorrelyatsiya yo'qligini, olingan natijalarning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

ARDL(1, 2) modelining diagnostik testlari (2.1-jadval) ijobiy natija bergan bo'lsa-da, o'tkazilgan "Bounds Test" natijasi ($F = 3,955$) kritik qiymatdan past ekanligi aniqlandi. Bu o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli kointegratsiya yo'qligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, qisqa muddatli dinamikani va muvozanatga qaytish tezligini baholash maqsadida "Xatolarni tuzatish modeli" (ECM) natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (3-jadval).

4 Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida Stata dasturida muallif tomonidan tuzilgan.



3-jadval. Yuridik shaxslarga ajratilgan uzoq muddatli kredit foiz stavkalarining uzoq muddatda muvozanatga qaytish tezligi (ECM modeli)⁵

Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyent	Standard xatolik	t-statistika	P-qiymati, P> t
Moslashish tezligi				
ADJ (Error Correction Term)	-0.203	0.0742	-2.73	0.008
Uzoq muddatli bog'liqlik (LR)				
MB asosiy stavkasi (X)	-0.1458	0.6691	-0.22	0.828
Qisqa muddatli dinamika (SR)				
Δ MB asosiy stavkasi (X_{t-1})	-0.0676	0.3115	-0.22	0.829
Δ MB asosiy stavkasi (X_{t-2})	0.6731	0.3256	2.07	0.043
Erkli o'zgaruvchi (cons)	4.8786	2.3145	2.11	0.039
Umumiy sitatistik ko'rsatkichlar:				
Kuzatuvlar soni	67			
Determinatsiya koeffitsiyenti, R^2	0,1882			
Root MSE	0,7766			
Log likelihood	-75,5339			

O'tkazilgan ECM modeli tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, muvozanatga qaytish koeffitsiyenti (ADJ) manfiy ishoraga ega va statistik jihatdan ahamiyatli ($p = 0,008$). Moslashish tezligining -0,203 ekanligi, nomutanosiblikning har oyda 20,3 foizi tiklanib, bank tizimidagi foiz stavkalari muvozanat holatiga taxminan 5 oyda qaytishini isbotlaydi. Bu holat amaldagi qat'iy belgilangan foiz stavkalari bozor sharoitlariga nisbatan sust darajada moslashishini ko'rsatadi. Qisqa muddatli dinamikada esa Markaziy bank asosiy stavkasining ta'siri faqatgina 2 oylik lagda ($p = 0,043$) namoyon bo'lmoqda. Uzoq muddatli bog'liqlik koeffitsiyentining (LR) pastligi va statistik ahamiyatga ega emasligi ($p = 0,828$) amaldagi foiz siyosati Markaziy bank signallarini uzoq muddatli istiqbolda ham to'liq qabul qilmayotganini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, Markaziy bank asosiy stavkasining bank kredit foiz stavkalariga uzatilishi past darajada ekanligi amalda qat'iy belgilangan foiz stavkasidan foydalanilayotganligi bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Monetar transmissiya tezligini oshirish hamda foiz riskini bank va mijoz o'rtasida adolatli taqsimlash uchun suzuvchi foiz stavkalarini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Markaziy bank asosiy stavkasining 2 oylik lag bilan manfiy korrelyatsiyada (-0,665) namoyon bo'lishi bank tizimida foiz stavkalari transmissiyasi mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat banklar aktiv va passivlar o'rtasidagi nomutanosiblikni boshqarishda mavjud yondashuvlarni yanada takomillashtirish va foiz riskini samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu riskni minimallashtirish maqsadida, suzuvchi foiz stavkalari mexanizmining yuqori va quyi chegaralarini belgilash bankning marjasini himoyalash bilan birga, mijozning kredit yuki keskin ortib ketishining oldini oladi va tomonlar o'rtasida foiz riskini adolatli taqsimlash imkonini beradi.

Biroq, kreditlar bo'yicha suzuvchi stavka mexanizmining samarali ishlashi faqatgina aktivlar bilan cheklanib qolmasdan, bankning resurs bazasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Bank resurs bazasining katta qismini jalb qilingan mablag'lar, xususan, depozitlar tashkil etadi. Depozitlarning jalb qilingan mablag'lardagi ulushi 2024-yil yakunida 47,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 53,1 foizga yetgan[7]. Bank resurslari tannarxining yuqoriligi va uning bozor signallariga nisbatan moslashishi kredit foiz stavkalarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

5 Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida Stata dasturida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ekonometrik tahlillar va ARDL modeli natijalari Markaziy bank asosiy stavkasi o'zgarishining tijorat banklari kredit stavkalariga 2 oydan keyin teskari ta'sir qilishini ko'rsatdi. Bu asosan resurslar tannarxining bozor signallariga nisbatan moslashmayotganligi bilan izohlanadi. Xususan, 2025-yilda inflyatsiya darajasi 7,3 foizgacha pasaygan sharoitda, aholi omonatlari bo'yicha real foiz stavkasining 14,1 foiz darajasida saqlanib qolishi banklar uchun "qimmat resurs bazasi" muammosini keltirib chiqarmoqda. Qolaversa, banklar resurs bazasi tarkibida qisqa muddatli omonatlarning yuqori ulushi saqlanib qolayotgani aktivlar va passivlar muddatlari orasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Mavjud holat banklarni likvidlikni saqlash maqsadida barcha hajmdagi omonatlarga bir xil yuqori stavka taklif qilishga majbur qilmoqda, bu esa operatsion samaradorlikni pasaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi foiz siyosatida resurslar hajmi va ularning tannarxi o'rtasidagi bog'liqlik past darajada. Bu esa pul-kredit siyosatining o'rta muddatli maqsadlariga erishishda bank tizimining "foiz kanali" orqali ta'sirchanligini cheklab qo'yarmoqda.

O'zbekiston tijorat banklarida foiz siyosati samaradorligini oshirish uchun, avvalo, resurslar tannarxi va kredit foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan, kredit foiz stavkalarini shakllantirishda Markaziy bankning asosiy stavkasi bilan bir qatorda bankning marginal resurs qiymati, depozitlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi, kredit riski, likvidlik va operatsion xarajatlarni hisobga oluvchi riskka asoslangan narxlash mexanizmidan foydalanish taklif etiladi.

Shuningdek, banklarning qisqa muddatli depozitlarga yuqori darajada tayanishini kamaytirish va uzoq muddatli resurslar ulushini oshirish zarur. Buning uchun depozit mahsulotlarini muddat va resursning bank uchun haqiqiy qiymatidan kelib chiqib differensiallashtirish, uzoq muddatli va barqaror depozitlarni rag'batlantirish hamda qisqa muddatli resurslar bo'yicha haddan tashqari yuqori foiz stavkalarining shakllanishini cheklash maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv banklarning resurs bazasi tannarxini pasaytirish bilan birga, aktiv va passivlarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, banklarning foiz siyosatini boshqarishda GAP va Duration GAP tahlillaridan muntazam foydalanish lozim. Aktiv va passivlarning qayta baholanish muddatlarini muvofiqlashtirish orqali banklar foiz stavkalari o'zgarishidan yuzaga keladigan risklarni oldindan baholashi va uzoq muddatli kreditlarni barqaror resurslar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Umuman olganda, tijorat banklarida differensial foiz stavkalaridan foydalanish banklarning resurs bazasi tannarxini optimallashtirish, aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish, sof foizli marjani barqarorlashtirish hamda monetar siyosatning foiz kanali orqali iqtisodiyotga ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prafulla G. Nabar, Sang Yong Park and Anthony Saunders. Prime rate changes: Is there an advantage in being first? The journal of Business. Vol. 66, No. 1(Jan., 1993), pp. 69-92.
2. Jianzhou Zhu, Manfen Chen, Wanli Li. Recent changes in the prime rate behavior. Review of Quantitative Finance and Accounting. Volume 33, 26 May 2009, pages 177-192.
3. Joseph Friedman, Yochanan Shachmurove. The responses of the prime rate to change in policies of the Federal Reserve. Economic Modelling, Volume 46, April 2015, pages 407 - 411.
4. Michael A. Goldberg. The sensitivity of the prime rate to market conditions. The journal of financial research. Volume7, Issue4. Winter 1984, Pages 269-280.
5. Stefanie Kleimeier, Harald Sander: Expected versus unexpected monetary policy impulses and interest rate pass-through in euro-zone retail banking markets. Journal of Banking & Finance. Volume 30, Issue 7, July 2006, Pages 1839-1870.
6. Itamar Drechsler, Alexi Savov, Philipp Schnabl: The Deposits Channel of Monetary Policy. The Quarterly Journal of Economics. Volume 132, Issue 4, November 2017, Pages 1819–1876.
7. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>